



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 1-iyun, № 108 (8731)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## MAQSADIMIZ — BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSINI E'ZOZLASH, BUNYODKORLIK ISHLARINI DAVOM ETTIRISH VA ULARNI KELAJAK AVLODGA YETKAZISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-may kuni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalarni ko'zdan kechirish, yirik obyektlar qurilishiga start berish, mahallalar hayoti bilan tanishish uchun Buxoro viloyatiga tashrif buyurdi.



Tashrif xayrli amaldan — Bahouddin Naqshband maqbarasi ziyoratidan boshlandi. Qur'on oyatlarini tilovat qilindi, xalqimizga tinchlik-farvonlik tilab duo o'qildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan majmua yanada obod qilinib, tarixiy asiyat tiklanmoqda. Ziyorat chog'ida ushbu ishlar ko'zdan kechirildi.

Avvalo, Toqi miyona darvozasidan boruvchi tarixiy yo'lak tiklandi. Endi ziyoratchilar Bahouddin Naqshband maqbarasiga sunnatga muvofiq qibla tarafdin yurib boradi.

— Yuz yil vayron bo'lib yotgan bu darvozani tiklaganimiz — o'zlikni anglash, tarixga hurmatimiz ifodasi, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Endi bu yerdagi har bir obidaga, xonlar dahmalariga bitiklar yozib qo'yish kerak. Ziyoratga kelganlar qadamma-qadam tarixni o'rganib, ma'naviy ruh olib o'tsin.

Toqi miyona darvozasining ikki yoni boqqa aylantirildi. Muzei va tahoratxona barpo etilgan. Yo'qolib borayotgan Doniyolbiy madrasasi tiklanmoqda.

Olimlar bilan suhbatda Bahouddin

Naqshband merosini chuqur o'rganish haqida fikr almashildi. Chet davlatlardan manbalarni olib kelish, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, muzeyni Imom Buxoriy majmuasidagidek mazmunan boyitish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, ziyoratchilar, jumladan, xorijiy turistlar uchun qulayliklarni kengaytirish, qishga ham, yozga ham mos sharoitlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mutasaddilarga shularni qamrab olgan holda olimlarning takliflari asosida qaror ishlab chiqish topshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi arafasida "Qorako'l" erkin iqtisodiy zonasida "Enpipe" korxonasi ishga tushirildi.

Umumiy qiymati 58 million dollar bo'lgan loyiha to'liq xorijiy investitsiya hisobidan amalga oshirildi. Xitoy, Turkiya, Niderlandiya va Ispaniyadan zamonaviy uskunalar keltirib o'rnatilib, yiliga 300 ming tonna metall quvurlar ishlab chiqarish tashkil etildi.

To'g'ri chokli uslubda tayyorlanuvchi bu quvurlar yuqori bosimga va tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lib ajralib turadi.

Ilgari bunday mahsulotlar, asosan, xorijdan olib kelinar edi. Tashishda quvurlar hajmi ko'p joy egallagan uchun narxi ham qimmatga aylangan.

Endi turli qalinlikdagi metallar list shaklida olib kelib, shu yerdagi tayyorlanmoqda. Buning samarasida tannarx 25 foiz arzonlashdi.

Gaz-kimyoy va tog'-kon sanoati, qurilish va boshqa sohalarda bunday chidamli quvurlarga talab yuqori. Xususan, shu yerdagi qurilayotgan MTO gaz-kimyoy majmuasida ham shundan foydalaniladi.

Korxonada 400 dan ortiq kishilar doimiy ish bilan ta'minlandi.

Davlatimiz rahbariga korxonaning rejalari, navbatdagi bosqichlar haqida ma'lumot berildi.

Ushbu loyihaning ikkinchi bosqichini amalga oshirish uchun ishlar boshlab yuborilgan. Unda bosimga bardoshli turli hajmdagi rezervuarlar ishlab chiqariladi. Yana 500 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Loyiha to'liq quvvat bilan ishlansa, 121 million dollarlik mahsulotlar tayyorlash imkonini tug'iladi. Korxonaning eksport salohiyati yanada ortadi.

Davlatimiz rahbari shu yerdagi ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatlashdi.

— Bugun Buxoroga kelishimizdan maqsad 2 milliondan ziyod aholining turmushini yaxshilash, daromad manbai yaratish, kambag'allikni qisqartirish. Viloyatning ko'p joyida ekin ekish uchun yerning sho'rini yuvish kerak. Shuning uchun biz ko'proq sanoatga e'tibor beryapmiz. Mana shu zavodni ham nima uchun qurdik? Bunday quvurlarni olib kelish uchun ko'p pulimiz yo'lga ketardi. Bugun yana yangi inshootlar qurilishini boshlaymiz. Ularning atrofida bir nechta korxonalar, ish o'rinlari paydo bo'ladi. Pirovard natijada odamlarning uyiga yorug'lik, ishonch va umid kiradi. Ana shu umid bizlarni birlashtiradi, — dedi Prezident.

Viloyat sanoatida "Qorako'l" erkin iqtisodiy zonasida yana bir zamin bo'ladi. Ushbu hudud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-avgustdagi tegishli qaroriga asosan tashkil etilgan. Uning umumiy maydoni 566 gektar bo'lib, 5 ta yirik loyiha joylashtirilgan. Ular bosqichma-bosqich amalga oshirilib, yakunda uch mingga yaqin ish o'rinlari yaratilishi mo'ljallangan.

Davlatimiz rahbari Buxoro viloyatining sanoat ko'rgazmasi va yangi investitsiya loyihalarini ko'zdan kechirdi.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hamda rejalashtirilgan loyihalar hamohang taqdimot qilindi.

Ko'rgazmada isitish tizimlari uchun katta va kichik qozonlar, og'ir va yengil sanoat uchun detallar, turli o'lcham va quvvatdagi sovutkichlar, elektrotexnika uskunalar, mototsikllar ko'zdan kechirildi. Shuningdek, davlat xaridlarini tartibga solish mexanizmi namoyish etildi.

Oxirgi yetti yilda viloyatga qariyb 4 milliard dollarlik investitsiyalar jalb etilgan. Ularning natijasida 90 mingga ish o'rni va 1 milliard 800 million dollarlik eksport imkoniyati yaratilgan. Joriy yil viloyatda 1 milliard 300 million dollarlik 607 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Buxoro viloyatida xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 14 milliard dollarlik 80 ta loyiha shakllantirilgan. Shundan 4 milliard dollarlik 14 ta loyihani investorlar va tarmoq rahbarlari birgalikda taqdimot qildi.

Loyihalarga Xitoy, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Malayziya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Loyihalar qurilish materiallari, elektr texnikasi, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika, tibbiyot, konchilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan.

Masalan, Xitoy bilan hamkorlikda G'ijduvon tumanida 600 MVtga teng shamol elektr stansiyasi qurish, malayziyalik investor tomonidan Peshku tumanida grafit konini o'zlashtirish va elektroskuterlar uchun akkumulyatorlar ishlab chiqarishni tashkil etish, eronlik investorlar tomonidan Buxoro tumanida kimyo klasterini tashkil etish loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur 80 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 22 ming 200 tadan ortiq aholi ish bilan ta'minlanadi.

Prezidentimiz qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni va mahalliyatlashirishni ko'paytirish, xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Qorako'l tumanida jamoatchilik vakillari bilan suhbatlashdi. Buxorolik nuroniyalar ijtimoiy davlat tamoyili asosida quriladigan inson manfaatlarini ta'minlanayotganini aytishdi. Zamonaviy maktab va institutlar tashkil etilib, bolalar ta'lim-tarbiyasiga imkoniyatlar kengaymoqda. Aholining salomatligi doimiy nazoratda.

Iqtisodiy-ijtimoiy dasturlar natijasida tumanlarga sanoat kirib boryapti, mahallalar obod bo'lmoqda. Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishga keng yo'l ochilgan.

Sayxunobod tajribasi asosida iqtisodiy kompleks tashkilotlari kambag'al oilalar bilan manzilli ishlab, ularning daromad topishiga ko'maklashmoqda. Tomorqalardan samarali foydalanilayapti.

Bular yurtimizdagi to'kinlik va farovonlik, ijtimoiy muhit barqarorligini yanada mustahkamlayotgani ta'kidlandi. Nuroniyalar Buxoroda ishga tushirilayotgan va qurilayotgan korxonalarining aholi bandligidagi ahamiyatini qayd etib, davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbarining hududlarga tashrifi ulkan loyihalarga asos bo'lishi yaxshi an'anaga aylangan. Bu gal ham shunday bo'ldi — Buxoro viloyatida yirik

energetika va transport majmualarining qurilishi boshlandi.

Mamlakatimizda so'nggi 5 yilda qayta ishlab sanoati hajmi 1,4 barobarga ko'payib, birgina o'tgan yilda 553 trillion so'mni tashkil etdi. Buxoroda esa bu ko'rsatkich 1,6 barobarga oshib, 30 trillion so'mga yetdi.

Viloyatda 7 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan 41 ta va yana shuncha qiymatdagi 39 ta mahalliy loyiha bo'yicha ish olib borilmoqda.

Endi yana uchta yirik inshoot — gaz-kimyoy majmuasi, quyosh elektr stansiyasi, Buxoro xalqaro aeroporti qurilishi rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur loyihalarning ahamiyati haqida so'zlashdi.

Ulardan biri "Qorako'l" erkin iqtisodiy zonasida quriladigan gaz-kimyoy majmuasidir. U "metanol to'leflins" (MTO) texnologiyasi asosida ishlaydigan yurtimizdagi birinchi zavod bo'ladi.

Loyiha doirasida qariyb 5 milliard dollar investitsiya jalb etilib, AQSH, Germaniya, Daniya, Avstriya, Italiya va Xitoyning eng ilg'or texnologiyalari keltirib o'rnatiladi. Yagona majmua doirasida yiliga 1,3 milliard metr kub tabiiy gaz va 430 ming tonna nafta qayta ishlanib, yurtimiz va jahon bozorida talab yuqori bo'lgan 1,1 million tonna polimer mahsulotlari ishlab chiqariladi. Hisob-kitoblarga ko'ra bunday mahsulotlar gaz narxiga nisbatan 5 barobar ko'p qo'shilgan qiymat beradi.

Yangi zavodda 2 ming kishi ish bilan ta'minlanadi. Shuningdek, u qurilish, to'qimachilik, charam-poyabzal, avtomobilsozlik, elektrotexnika va boshqa turdosh sohalarda o'nlab korxonalar, yana 4 mingga ish o'rni ochilishiga turtki bo'ladi.

Ushbu loyihalar ishga tushirilishi natijasida Buxoroda nafaqat turizm, balki sanoat ham haqiqiy drayverga aylanadi.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi elektr energiyaga bo'lgan talabni yiliga o'rtacha 6 foizga oshirmoqda. Shu bois joylarda yangi generatsiya quvvatlari barpo etib borilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'lumot xizmati surati.

### Muloqot

## ISLOM HANKORLIK TASHKILOTI BILAN ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Husayn Ibrohim Toha bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida keyingi yillarda O'zbekiston bilan ushbu nufuzli xalqaro tuzilma o'rtasidagi aloqalar mulqoq yangi bosqichga ko'tarilgani alohida qayd etildi.

Muloqot chog'ida ikki tomonlama aloqaning bugungi holati va ularni barcha yo'nalishda yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, tomonlar ta'lim, fan, innovatsiyalar, madaniyat va iqlim o'zgarishi masalalarida tashkilotning doimiy qo'mitalari hamda yordamchi tuzilmalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan fikr almashdi.

Husayn Ibrohim Toha "Xiva — 2024-yilda Islom dunyosining turizm poytaxti" xalqaro tadbiriga tayyorgarlik jarayonlarini yuqori baholab, bu, o'z navbatida, islom olami, uning ma'naviyati va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan O'zbekistondan yetishib chiqqan buyuk olimlarning ilmiy merosini yanada keng targ'ib etishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdi.

Uchrashuvda poytaxtimizda barpo etilayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va ushbu xalqaro tuzilmaning Istanbuldagi Islom tarixi, san'ati va madaniyati tadqiqotlari markazi o'rtasida yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yishga, boshqa yo'nalishlarda aloqalarni yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

## "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI IJROSI QANDAY BORYAPTI?

Kecha Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi. Unda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hududlarni ko'zdan kechirish, daraxt ekish va parvarishlash, yashil bog'lar va "yashil belbog"larni barpo etish borasidagi ishlar to'g'risida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining axboroti eshitildi.

### Senat qo'mitasida

Qayd etilganidek, loyiha doirasida joriy yilning bahor mavsumida muayyan yumushlar bajarilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martdagi farmoyishiga ko'ra joriy yilda jami 200 mln. tup, shundan bahorda 125 mln. tup ko'chat ekilishi belgilangan bo'lib, hozirga qadar 138,1 mln. tup daraxt ko'chati o'tqazilgan.

Ko'chatlarni agrotexnik talabga mos holda ekish, ularni parvarishlash, sug'orish, kasallik va

zararkunandalarga qarshi kurashish tadbirlarini to'g'ri tashkil etishga yo'naltirilgan 914 ta amaliy seminar o'tkazilgan.

Ko'chatlarni sug'orish uchun 253 ta suv chiqarish qudugi va 2906 km. uzunlikda sug'orish tizimi o'rnatilgan. Sug'orish manbasi mavjud bo'lmagan hududlarga sug'orish uchun 991 ta maxsus texnika biriktirilgan.

Shu yilning o'tgan davrida 377 gektar maydonda ko'chatxonalar tashkil etilib, ularda 120 mln. tup ko'chat yetishtirilgan. Hududlarda 747 ta ko'chat savdo yarmarkasi faoliyati yo'lga qo'yilgan.



### Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## INSON MANFAATLARI VA IJTIMOY HIMOYASINING HUQUQIY KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllidan himoya qilish, Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga yer va yer osti boyliklarini asrab qolish hamda muhofaza qilishga oid qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirishga, ayrim qonun hujjatlarida belgilangan normalarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalarini muhokama qilindi. Shuningdek, parlament nazoratiga oid muhim masalalar ham atroflicha ko'rib chiqildi.

### Yosh avlod tarbiyasida

shafqatsizlikka yo'l qo'yilmaydi  
Majlisda bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllidan himoya qilish sohasidagi munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi

o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan ishchi guruh a'zolari bilan birgalikda bir qator ishlar amalga oshirilgani qayd etildi.



### Bugun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

## UMRIMIZNING BEG'UBOR FASLI

Dunyodagi barcha elu elatlar ichida xalqimiz, ayniqsa, juda bolajon. Ota-bobolarimizning "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naqli ham aynan shu mehr-muhabbat ifodasi, desak, yangilashmaymiz.

Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlar va bolalarga amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy hamda ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat

Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining ilk davridanoq mavjud ta'lim sohasini, xususan, maktabgacha ta'limni tubdan modernizatsiya qilishga jiddiy e'tibor berdi. Natijada alohida tizim yaratilib, bog'chalar faoliyatini zamon talablariga mos ravishda yangi

bosqichga ko'tarish, ularda ilg'or tarbiya uslublari va metodikalarini qo'llash, moddiy-o'quv bazasini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sohaga xususiy sektor kirib kelishiga qulay shart-sharoitlar hozirlandi. Bu ishlar kichikintoylarning maktabgacha ta'limga qamrov darajasini bir necha barobar oshirish imkonini yaratdi.

Maktab ta'limi ham butunlay yangilanmoqda. Yangi shakl va mazmundagi Prezident, ijod va

ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildiki, bugungi kunda ular barcha umumta'lim muassasasiga andoza bo'lmoqda.

Yurtimizda kelajak avlod vakillari uchun berilayotgan imkoniyatlar, yaratilayotgan shart-sharoitlarni ko'rib, odamning ko'ngli yanada o'sadi, to'liqlanadi. Ulardan unumli foydalanayotgan farzandlarimiz ko'plab yutuqlarga, ko'ksimizni faxrga to'ldiruvchi natijalarga erishayotgani ham ayni haqiqat.

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni mamlakatimizda katta shodiyona bilan nishonlanadi. Bugun ham yurtimizning barcha hududida — ko'ngilochar maskanlar, bog'lar va ko'chalarda sanaga bag'ishlab turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, bayram dasturlari tashkil etilmoqda. Ularni o'tkazishdan maqsad — yosh avlod vakillariga yana bir bor e'tibor qaratish, farzandlarimizni xursand va baxtli ko'rish.



# MAQSADIMIZ — BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSINI E'ZOZLASH, BUNYODKORLIK ISHLARINI DAVOM ETTIRISH VA ULARNI KELAJAK AVLODGA YETKAZISH

So'nggi yillarda 2 milliard dollar xorijiy investitsiya hisobiga quvvati 2 gigavatti 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi. Bugungi kunda xorijiy shirkatlar bilan jami 19 milliard dollarlik 18,3 gigavatti 32 ta "yashil" generatsiya quvvatlari qurilmoqda.

Joriy yilning o'zida 14 ta quyosh va shamol stansiyasining dastlabki 2,6 gigavatti tarmoqqa ulandi. Natijada yurtimizda ishlab chiqariladigan jami quvvatda muqobil energiya ulushi 9 foizdan 15 foizga oshadi. Umuman, 2030-yilgacha bu ko'rsatkichni 40 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Bunda, albatta, serquyosh Buxoro alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunda viloyatda qariyb 4,5 milliard dollar xorijiy investitsiya hisobiga quvvati 4 gigavatti 9 ta yirik loyiha amalga oshirilmoqda.

Endi ularning safiga Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan quriladigan 250 megavattli quyosh elektr stansiyasi ham qo'shildi. Bu loyiha uchun Olot tumanidan 648 gektar yer ajratilgan. Stansiya 2025-yil dekabrda yagona elektr tarmog'iga ulanishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Buxoro viloyatida Saudiya Arabistonining "ACWA Power", Xitoyning "Gezhouba" kompaniyalari tomonidan ham muqobil energiya

majmualari barpo etilmoqda. 2030-yilga borib viloyatdagi quvvatlar 9 karra ortib, yiliga 12,5 milliard kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqariladi.

Startdagi yana bir loyiha — yangi xalqaro aeroport.

Davlatimizning ochiqlik siyosati natijasida dunyo bilan aloqalar jadallashdi. O'zbekistonda 90 dan ortiq mamlakatlar fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etildi.

Bularning natijasida yurtimizga keluvchilar ko'paydi. Oxirgi 2 yilda xizmatlar eksportining 40 foizi turizm sohasiga to'g'ri kelgan. 283 ta mehmonxona, 486 ta xostel, 1,2 mingta oilaviy mehmon uyi barpo etilgan. Turizm oqimi 35 foizga oshgan.

Xususan, birgina 2023-yilda Buxoroga 1 million 400 mingga yaqin xorijiy turistlar tashrif buyurgan.

Bu kabi omillar viloyat xalqaro aeroportida parvozlar sonini ko'paytirishni talab etmoqda. Shu bois xususiy sherkat shartlari asosida Buxoro tumanida yangi xalqaro aeroport qurish ko'zda tutilgan.

226 million dollarlik ushbu loyiha doirasida jahon standartlariga mos aeroport infratuzilmasi tashkil etiladi. Soatiga 1 ming 200 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Yo'lovchi va havo kemalariga servis sifatini oshirish orqali yangi xalqaro aviakompaniyalar jalb qilinadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, mazkur majmualar qurilishini boshlab berdi.

Shu yerda Buxoro viloyatida qurilishi rejalashtirilgan majmualar, jumladan, yangi aeroport loyihasi taqdimot qilindi.

Davlatimiz rahbari Qorako'l tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivini borib ko'rdi.

Hududda ilgari bunchalik keng ko'lamli qurilish bo'lmagan edi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 13-avgustdagi qaroriga muvofiq "Qorako'l" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan keyin sanoat jadal sur'atga kirdi. Undagi zavodlarda kelgusida minglab odamlar ish bilan ta'minlanadi. Qolaversa, yurtimizning boshqa hududlaridan ham mutaxassislar kelib ishlaydi. Ularga qulaylik, oilalariga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida mazkur iqtisodiy zona yaqinida yangi massiv bunyod etilmoqda.

Loyiha ikki bosqichli bo'lib, 1 ming 380 xonadonli 71 ta ko'p qavatli uy, ta'lim va tibbiyot muassasalari, mahalla markazi hamda xizmat ko'rsatish obyektlari qurilishi ko'zda tutilgan.

Hozirda birinchi bosqichda 12 ta ko'p qavatli uy, maktab, bolalar bog'chasi, poliklinika foydalanishga topshirilgan.

Prezidentimiz shu yerda mahalla vakillari bilan suhbatlashdi. — Mahallada "yettilik" hamfikir va

hamjihat bo'lsa, ihsizlik, jinoyat bo'lmaydi. Buning uchun ularda yetarli vakolat bor. Mutasaddi tashkilotlarni jalb etib, odamlarning daromad topishiga yordam berish kerak. Maktabda ta'lim sifatidan xabardor bo'lish, bitiruvchilarni oliy ta'limga, daromadli hunarlariga yo'naltirish zarur, — dedi davlatimiz rahbari.

Atrorni, yo'l bo'ylarini obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Kelgusida hududda istirohat bog'i va suzish havalari tashkil etiladi. Bo'sh maydonlarga daraxtlar ekilib, xiyobonga aylantiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qorako'l tumanida yangi loyiha asosida ta'mirlangan avtomobil yo'lini ko'zdan kechirdi.

Buxoro viloyatida 15 ming 400 kilometr avtomobil yo'llari mavjud. Shundan 486 kilometri xalqaro ahamiyatga ega. Ularda kuniga o'rtaacha 45 — 50 mingta transport vositalari harakatlanadi. Shu yil 29-yanvarda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari bu sohaga alohida to'xtalib, yo'llarni sifatli qurish, ko'chalar bo'yida xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Bu borada barcha hududda ishlar boshlab yuborilgan.

Jumladan, Samarqand — Buxoro — Turkmanboshi avtomobil yo'lining Qorako'l tumanidan o'tgan bir qismi namunaviy shaklga keltirildi. Loyihaga ko'ra 4 tasmasi

yo'l yangicha qatlamli asfalt-beton bilan qoplangan. Bunda mustahkamligi yuqori innovatsion materiallardan foydalanilgan evaziga yo'lining sifati oshgan. Masalan, hozirgi an'anaviy asfalt yo'llar o'n besh yil atrofiga qayta qurilsa, yangi loyiha bo'yicha yigirma yilgacha xizmat qiladi. Ularni joriy ta'mirlash oraliqi ham uzayadi. Yana bir samarali tomoni, ta'mirlash jarayonida yo'l qatlamlarini o'sha joyning o'zida qayta ishlab, yangilash mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbari aholi manfaatiga qaratilgan bunday ishlarni kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

— Asosiy vazifa — yo'llarda sifat va madaniyatni ta'minlash, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yangi loyihada bu masala ham inobatga olingan. Yo'l sifatini saqlash maqsadida, me'yordan ortiq yul tashuvchi transport vositalarining yuzn parametrlarini vaqti-vaqti bilan o'lchovchi ko'chma tarozi qo'yiladi.

Shuningdek, bu yerda yondosh shoxobcha yo'l ham qurilgan. Yangi belgilar, elektron tablo va quyosh panelli yoritish chiroqlari o'rnatilgan. Yo'l bo'yiga manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan.

Prezidentimiz bu jihatga alohida to'xtalib, darixt ekish yo'l qurilishi bilan birga olib borilishi shart ekanini ta'kidladi.

Shu yerda transport va bunyodkorlik loyihalari taqdimot qilindi.

Buxoro viloyatida bu boradagi rejalar ko'p. Ilgari bir yilda o'rtaacha 250 — 300 kilometr yo'l ishlab bajarilgan bo'lsa, birgina 2023-yilda 1 ming 255 kilometr yo'llar ta'mirlangan. Bu yil hudud bo'yicha 1 ming 316 kilometr yo'lni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash rejalashtirilgan.

Shularning davomi sifatida G'ijduvon tumanidan Turkmaniston chegarasigacha 155 kilometr yo'lni rekonstruksiya qilish loyihasi ma'qullandi.

Yo'lsizlik sohasida kadrlar tayyorlash, mutaxassislarning rivojlangan davlatlarda malaka oshirishini tashkil etish lozimligi ta'kidlandi.

Buxoro shahrini rivojlantirish konsepsiyasi ham ko'rib chiqildi. Unga ko'ra shaharda "Yangi O'zbekiston" massivi va bog'i bunyod etilishi rejalashtirilgan. Bog'da Buxoro tarixi zamonaviy yondashuvlar asosida namoyon etilishi ko'zda tutilgan. Bu loyihaning g'oyaviy mazmuni va texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrif davom etmoqda.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**  
**Ikror AVVALBOYEV,**  
**Zarif KOMILOV,**  
**O'ZA muxbirlari.**

## Davra suhbatlari

### MUHOKAMADA — MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZ MIGRATSIA MASALASI

"Winrock International" xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti filiali tashabbusi bilan Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya hamkorligida AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ning "Markaziy Osiyoda xavfsiz migratsiya" (SMICA) loyihasi O'zbekiston Respublikasida yakunlanishi munosabati bilan xalqaro davra suhbatlari tashkil etildi.

Unda mamlakatimizda mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish tizimi samaradorligini oshirish, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlarni yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish bo'yicha olib borilgan ishlarga alohida e'tibor qaratildi.

USAIDning mamlakatimizdagi loyiha koordinatori tomonidan odam savdosiga qarshi kurashish, munosib mehnat tamoyillarini joriy etish hamda xavfsiz migratsiya yo'nalishida O'zbekistonda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar yuqori baholandi.

Bu borada Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya hamda ushbu masalaga daxldor Milliy ma'ruza instituti amalga oshirayotgan sa'y-harakatlar ishtirokchilari tomonidan alohida e'tirof etildi.

Tadbirga xavfsiz migratsiya amaliyotini targ'ib qilish va odam savdosiga qarshi kurashish, mazkur masalada hamkorlikdagi tadbirlarni doimiy davom ettirishga kelishib olinadi.

## Forum

### JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH VA XALQARO TAJRIBA

Qirg'iz Respublikasining Bishkek shahrida Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhiga a'zo davlatlar parlamentlari ixtisoslashtirilgan qo'mitalari vakillarining III xalqaro forumi bo'lib o'tdi.

Yevroosiyo guruhining 40-yalpi majlisi haftaligi doirasida o'tkazilgan ushbu forumda Belarus, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Qozg'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Xitoy va Hindiston parlamentlari hamda moliyaviy razvedka bo'linmalari vakillari jam bo'ldi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi tarkibida Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Narimon Umarov ham qatnashdi.

Forumda innovatsiyalar va yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish xavflarini, shu jumladan, virtual aktivlarga oid qonunchilikni tartibga solish bo'yicha tajriba almashildi.

Tadbir davomida ishtirokchilari tomonidan mavzuga aloqador yana qator masalalar keng muhokama qilindi.

"Xalq so'zi".

# INSON MANFAATLARI VA IJTIMOY HIMOYASINING HUQUQIY KAFOLATI



Xususan, loyihani birinchi o'qishda ko'rib chiqish davomida siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar tomonidan berilgan bir qator taklif va tavsiyalar ishchi guruh yig'ilishlarida chuqur tahlil qilinib, ularning aksariyati hujjat matnida aks ettirildi.

Jumladan, bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllidan himoya qilishga doir faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar qatoriga Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari ham kiritildi. Bunda bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya tomonidan muvofiqlashtirilishi, ijtimoiy himoya milliy agentligi komissiyasining ishchi organi, qolaversa, qonun ijrosini ta'minlash bo'yicha vakolatli organ etib belgilanishi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasi bilan ilk bor yangi institut joriy qilinib, bolalarga ham himoya orderi berish taklif etilmoqda. Himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan berilishi va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga vakolatli davlat organi ishtirokida topshirilishi belgilanyapti.

Bundan tashqari, loyihada bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning ishtiroki va ularning majburiyatlarini aks etmoqda. Ota-onalar (ularning o'zini bosuvchi shaxslar)ning bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollik, insoniy qadriyatni kamsituvchi muomala, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan xoli bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilmoqda.

Shu bilan birga, zo'ravonlikdan jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili moddiy zararni o'zini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinishi belgilanmoqda. Shundan kelib chiqib, "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga tegishli qo'shimcha kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Tahririy tuzatish kiritish taklifi inobatga olinmadi

Majlisda yerni va yer osti boyliklarini asrab qolishga hamda muhofaza qilishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamalar markazida bo'ldi.

Mazkur hujjat bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar noqonuniy qazib olinishiga chek qo'yish, mazkur toifadagi qilmishlar uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Xususan, respublika hududida foydali qazilmalar ruxsatnomasiz, shuningdek, oltin qazuvchilar usulida qazib olinishiga chek qo'yish va ushbu harakatlarni javobgarlikni kuchaytirish maqsadida Jinoyat kodeksi yangi 196<sup>1</sup> va 196<sup>2</sup>-moddalari bilan to'ldirilmoqda. Bunga ko'ra foydali qazilmalarni ruxsatsiz qazib olish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganidan so'ng bir yil ichida takroran sodir etish jinoiy qilmish, deb baholanishi, foydali qazilmalarni oltin izlovchilar usulida ruxsatsiz qazib olish uchun to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlik belgilanmoqda.

Shuningdek, mazkur yangi normalardan kelib chiqqan holda ushbu jinoyatlarni tergov qilish vakolati ichki ishlar organlari tergov bo'linmalariga berilmoqda.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning bir qator moddalariga o'zgartirishlar kiritilib, tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish, sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchilik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmaslik, yer berish tartibini buzish bilan bog'liq huquqbuzarlikni aniqlash va ushbu huquqbuzarlik uchun ma'muriy bayonoma rasmiylashtirish vakolatini ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlariga berish taklif etilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan bir qator takliflarni ilgari surdilar. Xususan, deputat O'ktam Islomov tabiiy boyliklardan samarali foydalanishga xizmat qiladigan mazkur qonun loyihasini konseptual jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan 196<sup>1</sup>-modda bilan foydali qazilmalarni oltin izlovchilar usulida ruxsatnomasiz qazib olganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi ko'zda tutilganiga e'tibor qaratib, ushbu moddadagi "oltin izlovchilar usulida" atamalarini o'rninga "foydali qazilmalardan oltinni ruxsatnomasiz qazib olganlik uchun" shaklida tahririy tuzatish kiritish zarurligini ta'kidladi.

Qonun tashabbuskorlari va mas'ul qo'mitaning xulosasiga ko'ra taklif etilgan tahririy tuzatish qonun loyihasining konsepsiyasiga to'g'ri kelmaydi va amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda foydali qazilmalarni oltin izlovchilar usulida ruxsatnomasiz qazib olganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini belgilangan. Qonun loyihasi bilan taklif etilayotgan qo'shimchaga ko'ra ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin shunday harakat sodir etilsa, jinoiy javobgarlik chorasi qo'llanilishi belgilanmoqda. Shu bois mazkur moddaga taklif etilgan tahririy tuzatish inobatga olinmadi.

Qizg'in savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

### Kimlar jamoat transportidan bepul foydalanadi?

Majlisda "Ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjat bilan Soliq kodeksi hamda 7 ta qonunga o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksa va nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlarga shahar yo'lovchilar transportidan (taktsidan tashqari) bepul foydalanish huquqini berish qonun loyihasida aks etyapti.

Shuningdek, Prezident huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari belgilanmoqda. O'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga qilingan homiylik mablag'larini soliq bazasini aniqlashda cheginib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga qo'shish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda og'ir ahvolda tushib qolgan va og'ir ahvolda tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalar manfaatlarini ko'zlab fuqarolik hamda ma'muriy sudlarga arizalar, shikoyatlar va da'volar kiritilganda davlat bojini to'lashdan ozod qilish belgilanmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

### 28 ta qonun hujjatidagi normalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilmoqda

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat organlarining faoliyatini demokrattashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarni yaratdi. Bu amaldagi qonun hujjatlarini Asosiy Qonunimizga muvofiqlashtirishni taqozo etmoqda.

Majlisda ko'rib chiqilgan qonun loyihasi bilan 28 ta qonun hujjatiga o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda. Xususan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi Konstitutsiyaning 81-moddasidan kelib chiqib, "ommaviy axborot vositalari erkinlik va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatish bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi" degan jumalarni bilan to'ldirilmoqda.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 19-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligiga oid norma belgilanganligidan kelib chiqib, 22 ta qonunchilik hujjatining tegishli moddalariga yangi tahrirdagi Konstitutsiya matniga muvofiqlashtirish nuqtayi nazaridan o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 67-moddasiga asosan tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyatini yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. Shunga ko'ra "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasida nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilmoqda.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

### Favqulodda vaziyatlar vazirining axboroti eshitiladi

Majlisda Favqulodda vaziyatlar vaziri A. Qo'ldoshevning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyati samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi axborotini eshitish haqidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatida respublika hududida tabiiy ofatlar soni sezilarli darajada oshdi. Ularning o'rtaacha soni 2001 — 2010-yillarda 115 ta, 2011 — 2022-yillarda 126 ta holatni tashkil etgan.

Global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq kuzatilayotgan vaziyat sababli respublikada iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini ko'rish va tabiiy ofatlar bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish doimo muhim vazifa bo'lib qoladi.

Shundan kelib chiqib, majlisda bu borada amalga

oshirilgan ishlar yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirining axborotini eshitish bo'yicha qaror qabul qilindi.

### Nega ayrim maktablarda tibbiyot xonalari mavjud emas?

Majlisda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri H. Umarovga "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish holati to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi masala ko'rib chiqildi.

Ma'lum qilinganidek, quyi palata deputatlari tomonidan mazkur sohalarda olib borilayotgan ishlar, ularning natijadorligi ustidan ta'sirchan parlament nazorati o'rnatilib, sohalarni tartibga solishga doir qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatning ijro etilishi holati nazorat-tahlil tartibida o'rganilib kelinmoqda.

Ushbu o'rganishlar yakunlari, shuningdek, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlar tahliliy voyaga yetmaganlarning sog'liqni saqlash huquqlarini ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishi va kasalliklarning oldini olish uchun eng qulay sharoit yaratish, umumta'lim maktablarida tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish borasida o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, bugungi kunda respublikadagi ayrim umumta'lim maktablarida tibbiyot xonalari yo'q. Mavjud tibbiyot xonalari ham zarur jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan.

Shundan kelib chiqib, barcha umumta'lim maktablarida tibbiyot xonalari faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni zarur tibbiy jihozlari, dori-darmon vositalari bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriga parlament so'rovini yuborish bo'yicha qaror qabul qilindi.

### Raqamli texnologiyalar vaziriga parlament so'rovi yuborildi

Majlisda deputatlar Raqamli texnologiyalar vaziri Sh. Shermatovga "Elektron hukumat" tizimining yangi bosqichi — "Raqamli hukumat" tizimiga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Qayd etilganidek, aholi murojaatlari, joylarda deputatlar tomonidan olib borilayotgan parlament nazorati tadbirlari va saylov okruglaridagi uchrashuvlar jarayonida "Elektron hukumat" tizimi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish bilan bog'liq kamchilik va muammolar borligi kuzatilmoqda. Masalan, davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda eskirgan byurokratik tartibotlar, shu jumladan, elektron tizim orqali olish imkoniyati mavjud bo'lgan ma'lumotlarni qog'oz ko'rinishida so'rab olish, ish faoliyatini tashkil etish uchun muhim bo'lmagan hujjatlarning talab qilinishi holatlari saqlanib qolmoqda.

Shuningdek, Adliya vazirining notarius xizmatlari tomonidan uy oldi-sovdi shartnomasini rasmiylashtirishda mijozning kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida yoki fuqarolar nomida shaxsiy uy-joy boryo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomalarni "Notarius" axborot tizimi orqali olish mumkin bo'lsa-da, ular qog'oz ko'rinishida talab qilinmoqda.

## "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI IJROSI QANDAY BORYAPTI?



Qo'mita eshituvda ana shu kabi ijroiy ko'rsatkichlar barobarida, yo'l qo'yilgan qator kamchiliklar ham ko'rsatib o'tildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, bahor mavsumida qariyb 600 mingdan ortiq ko'chatlar sug'orish tizimi mavjud bo'lmagan joylarga ekilgan bo'lib, bu ularning tubit ketishini xavf ostida qoldiradi. Ayrim vazirlik, idora va tarmoqlarda esa ushbu tadbirlarga yuzaki munosabatda bo'lishgan.

Prezidentning 2023-yil 23-noyabrda Farnoniga muvofiq hududlarda ekilgan daraxtlarning kasallik va zararkundalarga qarshi mexanik, biologik, kimyoviy kurash tadbirlarini moliyalashtirish mahalliy budget hamda vazirlik va idoralarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga

oshirilishi belgilangan bo'lsa-da, mazkur masala ham hal etilmasdan qolmoqda.

Qolaversa, mahalliy hokimlik va vazirliklar, idora hamda tashkilotlar tomonidan avvalgi mavsumlarda ekilgan, tabiiy va boshqa omillar hisobiga qurib qolgan daraxtlarni xatlovdan o'tkazish, ularning o'rniqa yangilarini ekish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan.

Muhokama yakunida mas'ullarga kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berildi. Masalan, ekilgan ko'chatlar haqidagi ma'lumotlarni "Yashilmakon.eco" elektron platformasiga o'z muddatida va haqqoniy joylashtirish, kuzgi

mavsumda har bir hududning iqlimi, tuproq sharoitidan kelib chiqib, daraxt turi va ekish joyini belgilash lozimligi alohida ta'kidlandi. Ayni chog'da sanoat korxonalariga va unga tutash hududlarda, chiqindi poligonlariga atrofdagi "yashil belbog'larni barpo etishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi aytiladi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga "Yashil makon" umummilliy loyihasi ijrosi yuzasidan qat'iy deputatlik va jamoatchilik nazoratini davom ettirish, hududiy ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmalarining bu boradagi ishlari to'g'risidagi axborotni Kengash yig'ilishlarida izchil eshitib borish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Muhokama qilingan masala bo'yicha Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## NUR SOCHMOQ UCHUN AVVAL YONMOQ KERAK

Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Xalq so'zi" gazetasining 22-may sonida e'lon qilingan "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!" sarlavhali maqolasini o'qib, qalbmizni ajib hayajon chulg'ab oldi, desak, mubolag'a emas. Ushbu samimiyatga yo'g'rilgan haqiqatlar ifodasi shunday so'zlar bilan boshlanadi:

"Prezidentning yaqinda Jizzaxda viloyat faollari bilan uchrashuvdagi nutqida bir nuqta ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Unda davlatimiz rahbari shunday degan edi: "Xudo menga sog'liq berib, umr bersa, bizda kambag'allik va ishsizlik bo'lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo'lsin, nevaralari sog'lom tug'olsin, maktabi ishlasin, yo'llari ravon bo'lsin deb ishga keldim..."

### Aks sado

Yozilgan nutqdan tashqari qariyb aytilgan ushbu mulohazalar odamlarni favqulodda sergaklantirdi. Ehtimol, shundandir ayni iqtibos matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda ko'p aylandi. Nega?"

Barchamizni munosabatga, mushohadaga chorlagan ushbu maqola aynan ushbu savolga batafsil va asosli ravishda javob berib olgan.

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan yangilanishlarni chuqur mulohaza qilish ekanimiz, xalqimiz kutgan o'zgarishlarning harakat markazida turgan buyuk reformator — Prezidentimiz tashabbuslari xususida to'xtalmaslikning iloji yo'q.

Xalq taqdirini o'z taqdiri deb bilgan Shavkat Mirziyoyev o'z gacha shiddatkor kuchga, fidoyilikka ega bo'lgan haqiqiy innovatoridir. Davlatimiz rahbari faoliyatining dastlabki davridanoq marra katta oldi. Xalq ichida "suyagi qotgan" Yo'lbo'shimiz odamlarga shonli tariximizdan so'zlab o'tirmadi, nurlil kelajak to'g'risida bashoratlar keltirmadi, zero, Shavkat Mirmonovich buguning farzandi. Tik va adl nigohi to'g'ridan-to'g'ri xalqning qalbin ko'ra oldi, holbuki, barchasi bugundan boshlanishini haqiqiy lider yaxshi tushunadi.

Mavloni Jaloliddin Rumiyning "Sham bo'lmoq oson emas! Nur sochmoq uchun avval yonmoq kerak", deya aytilgan hikmatli so'zlari millatimiz sardori to'g'risidagi qarashlarimizga hamohang. U jonini qiyab ishlatdi, xalq uchun kuylidi, yonish kerak bo'lsa, avval o'zi quyosh bo'lib, elimiz yo'lini yoritib boshlagach, hammaning yuragida "Yangi O'zbekiston" olovini gurkuratib yubordi.

Mana shu olav taftida yurtimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo'ydi. Eng katta voqeilik esa — jamiyatning milliylashuvi bo'ldi. Qadr-qimmat, urf-odat, milliyat, g'oya va mafkuramiz egasiga, o'zimizga qaytdi. Yopishmagan yamoqdek, tomoqdan o'tmagan luqmadek bo'lib turgan siyosiy mafkura oramizdan ko'tarilib ketdi. Bugun hayotimizning barcha jabhasi o'zgarishlar ichida, 40 millionga yaqinlashayotgan xalqimiz esa bu islohotlarni qo'llab-quvvatlayotgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan hayotbaxsh islohotlarga dunyo afkor ommasi, xalqaro siyosatshunosi va ekspertlar yuqori baho bermoqda. Jumladan, nufuzli internet nashrlarida, gazeta va jurnallarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan inqilobiy o'zgarishlar haqida xabarlar, tahliliy maqolalar muntazam chop etib turiladi.

Vatanimizdagi yangilanishlar va ularning jahoniy e'tiroflari qalbmizni quvonchga, g'urur-iftixorga to'ldiradi. Axir qachon shunday bo'lgan? Yurakni entiktirib yuboradigan bugungi yuksalishlar avlodlar qalbidan, xotirasidan o'chmasligi aniq.

Vatan to'g'risida eng chiroyli, osmoniy so'zlarni aytish mumkin, hech kim bitmagan she'rilar yozish mumkin, dilga yoqadigan qo'shiqlar yaratish mumkin. Lekin mamlakatda

yangilanishlar to'liqini, yangi Rennessans poydevori yaratuvchisi, davrimizning elparvar jadidi — ma'rifatparvar ajdodlarimizning yetuk davomchisi bo'lgan davlatimiz rahbari eng mashaqqatli ishlarni shovhin-suronsiz, madhilaru qarsaklariz, xokso'rik va kamtarlik bilan bajarmog'daki, bu kabi islohotlar, evrilishlarni amalga oshirish, aslida, oson emas. Zero, globalashgan bugungi dunyo tahdid xataridan, sinovu mashaqqatlardan xoli emas. Turli mintaqalarda yuz berayotgan notinchiliklar, tabiiy va texnologik o'zgarishlar muammolar, davlatlar o'rtasidagi ishonch inqirozi hayotni murakkablashtirmoqda.

Ana shunday qiyin vaziyatda uzoqni ko'zlaguvchi donolik, puxta tajriba, o'tkir mushohada, favqulodda hassoslik, chin insoniylik bilan kamtar turib davrni, odamlar taqdirini o'zgartirib yuborgan Prezidentimiz chin ma'noda, yangi O'zbekiston me'moridir. Mana shu inson rahnamadagi millat qadri, qaddini tikladi, qadami dadillashdi. Endi butun el qanot qoqib uchmoq darkorligini anglamoqda.

Darhaqiqat, hur va erkin hayot, adolati jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'ygan xalqimiz mashaqqatli, murakkab taraqqiyot yo'lini matonat bilan bosib o'tmoqda. Shu asosda odamlarning o'z kelajigiga, ertangi kuniga munosabati o'zgaradi, hayotga, unib-o'sgan zamanga muhabbati, jamiyatga e'tibori oshadi. Inson va uning manfaatlari oliy qadriyat ekanini qalbin his etdi. Demak, davr va makon, maqsad va burch, islohotlar va samara, yetakchi va yelkadoshlar birliigi yangi O'zbekiston mafkurasida jamuljam.

Bugun xalqimiz atqoli adib Cho'lpon izlagan "kecha"ning "kunduz"ida — yorug' kunlar ichra yashamoqda. Dunyoda ham yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaygan.

Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning maqolasida ana shu tarixiy voqeiklar mohiyati chuqur mushohada va hayotiy misolarda asosida ochib berilganki, ularni o'qigan kishining dunyoqarashi yanada boyiydi, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'ulari kuchayadi.

Shu ma'noda, Farg'ona davlat universitetida mazkur maqola katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Endilikda uning mazmuni-mohiyatini professor-o'qituvchilar boshchiligidagi "Bir ziyoli — bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida mahallalarda, quyi ta'lim bo'g'inlarida targ'ib qilish ishlarini davom ettiraymiz. Zotan, biz, ziyo ahli jamiyatida ming qadam oldinda yurishimiz, islohotlarimizning faol targ'ibotchisi bo'lishimiz zamon talabi, ayni chog'da bu ezgu ish vijdon amri ham bo'lishi zarur. Shunday ekan, yurdoshlarimizni yangi O'zbekiston bunyodkorlari qatorida bo'lishga davat etib qolamiz.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, Farg'ona davlat universiteti rektori.

## FARG'ONADA O'TKAZILGAN O'RGANISHLAR NATIJALARI KO'RIB CHIQLDI

Farg'ona viloyati hokimligida Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

### Senator va hayot

Unda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining doimiy komissiyalari vakillari, ekspertlar, Yoshlar parlamenti a'zolari, tegishli vazirlik va idoralarda hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Qo'shma majlisda shu yil 27 — 29-may kunlari ishchi guruh tomonidan viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga o'z vaqtida va sifatli bo'xona xizmatlarini ko'rsatish, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun yer maydonlari ajratish hamda eksport hajmini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holati yuzasidan o'tkazilgan o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan katta islohotlar, klasterlarning tashkil etilishi va davlat buyurtmasi bekor qilinishi, soha rivoji uchun berilayotgan ulkan imtiyozlar va yo'naltirilayotgan mablag'lar o'z samarasini bermoqda.

Muhokama jarayonida hududlarda o'tkazilgan o'rganishlar chog'ida uddalangan ijroiy ishlar bilan bir qatorda, muayyan kamchiliklar hamda o'z yechimini kutayotgan muammolar ham aniqlanganligi ta'kidlandi.

Xususan, yoshlarga yer berish bo'yicha 746 gektardagi 2367 ta lotning g'olibi aniqlanmagan, jumladan, Farg'ona tumanida 654 ta, Oltiariqda 267 ta, Rishtonada 255 ta, Toshloqda 223 ta, O'zbekiston tumanida 196 ta, Buyaydada 170 ta, Qovada 92 ta lot auktsionda turgani kuzatilgan. Qolaversa, mevasabzavot kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadida auktsionga chiqarilgan 22 gektar maydondagi 475 ta lotning ham egalari aniqlanmagan.

Viloyatda xalqaro moliya institutlari kredit mablag'lari hisobidan 95 loyihamo moliyalashtirish rejalashtirilgan bo'lib, tayyor holda topshirish mexanizmi asosida amalga oshiriladigan agrologistika va intensiv bog'lar bo'yicha jami qiymati 49,9 mln. dollarlik 10 ta loyiha hujjati joriy yilning mart oyida tegishli tashkilotlarga taqdim etilgan bo'lsa-da, hanuzgacha mablag' ajratilmagan.

Yana bir misol: Oltiariq, Quva, O'zbekiston tumanlarida ulgurij savdo bo'yicha savdo nuqtalari tashkil etilgan bo'lib, viloyatning olis hududlaridan mahsulotlarni tashishda ayrim qiyinchiliklar ko'rsatib o'tildi. Shulardan kelib chiqib, yig'ilishda senatorlar tomonidan zarur taklif va tavsiyalar berildi.

Yer ajratish, mevasabzavot kooperatsiyasini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlar bo'yicha aholi va yoshlar o'rtasida keng targ'ibot olib borish, qisqa muddatda tashabbuskorlarni aniqlash va yerlarni o'z egalariga topshirishda "mahalla yetilgisi" mas'uliyatini oshirish lozimligi alohida aytib o'tildi.

Qolaversa, viloyatning olis makkazlarida yetishtirilayotgan mahsulotni savdo nuqtalariga yetkazish bo'yicha logistika xizmatlarini ko'paytirish va ushbu hududlarda ham ulgurij savdoni tashkil etish choralarini ko'rish masalalari ham urg'ulab o'tildi.

Majlis yakunida ko'rib chiqilgan masala yuzasidan Senat qo'mitasi va xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining qo'shma qarori qabul qilinishi belgilandi.

"Xalq so'zi".

# MAMLAKATIMIZ TIBBIYOTI VA AMALIY YONDASHUVLAR



Samarqand davlat tibbiyot universitetida "Peterburg — Samarqand: amaliy xirurgiyada zamonaviy yondashuvlar" mavzuida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Yurtimiz va rossiyalik davlat va jamoat arboblari, tibbiyot sohasi namoyandalari, olimlar ishtirok etgan mazkur nufuzli tadbir mamlakatimizda fanni, jumladan, tibbiyot ilmini yanada rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganining yana bir yaqqol ifodasi bo'ldi.

### Simpozium

Simpozium doirasida universitet ko'p tarmoqli klinikasining yangi jarrohlik binosi ochilishi, mahorat darslari, tibbiyotning eng dolzarb mavzularida davra subhatalari, hamkorlikdagi jarrohlik amaliyotlari tashkil etildi.

Ochilish marosimida ta'kidlanganidek, Samarqand davlat tibbiyot universiteti bugun o'z taraqqiyotining butunlay yangi davrini boshdan kechirmoqda. Nufuzli ilmiy maktablar, kashfiyotlar, ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy an'analarga ega ushbu oliyog'hozir kunda Rossiya, Belarus, Xitoy, Janubiy Koreya davlatlaridagi yetakchi tibbiyot oliy o'quv yurtlari bilan samarali hamkorlik o'rnatgan.

Bu yerda muntazam ravishda xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, ilmiy seminarlar o'tkazib kelinmoqda. Akademik mobillik doirasida oliy o'quv yurtlariga talaba almashish, ayniqsa, yosh olimlarning chet elda stajirovka o'tashi, ilmiy hamkorlik qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Talabalarning ilmiy tadqiqot usullari, zamonaviy yutuqlar, xorijiy tillarni o'rganishi, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi uchun barcha qulaylik yaratilmoqda.

Inson va jamiyat taraqqiyoti bir-birini to'ldirib boradigan, bir-birini takomillashtirib, tamaddunning yuqori bosqichiga olib

chiqadigan ma'naviy-ma'rifiy hodisadir. Tarixiy taraqqiyot tafakkur qonuniyatlaridan kelib chiqadi. O'zida ilm va madaniyat olami qadriyatlarini ifoda etadi. Shu nuqtayi nazaridan, universitet ko'p tarmoqli klinikasining qariyb 100-yillik tarixi zamirida minglab ilmiy-ma'rifiy qadriyatlar mujassam.

Bu maskanda tibbiyotning 30 dan ortiq yo'nalishlari bo'yicha xalqaro standartlarga javob beradigan ixtisoslashtirilgan yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Keyingi yillarda klinikada tug'uruk kompleksi, maslahat poliklinikasi, funksional diagnostika, endoskopik xirurgiya bo'limlari hamda umumiy amaliyot shifokorlarini tayyorlash markazi tashkil etildi.

Muassasa zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Xususan, uch yil muqaddam klinikada zamonaviy MRT, MSKT, raqamli rentgen, so'nggi rusumdagi UTT apparatlari o'rnatilgan diagnostika markazi ishga tushirildi. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyali murakkab operatsiyalar, jumladan, jigar va buyrak transplantatsiyasi, bariatrik operatsiyalar, neyroendoskopik, mikroftalmologik, endourologik, laparoskopik, torakoskopik jarrohlik amaliyotlari yo'lga qo'yildi. Koronavirus pandemiyasi davrida

maxsus laboratoriya tashkil etildi va u Germaniyada ishlab chiqarilgan PZR hamda immunoferment analizatorlari bilan jihozlandi.

Biz tarixdan juda qisqa davrda katta yaratuvchilik, bunyodkorlik, inson qabidagi va ongidagi buyuk o'zgarishlar, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar orqali butunlay yangilanayotgan jamiyatga guvoh bo'lmog'damiz.

200 o'rinni yangi xirurgik bino ana shu ulug'vor islohotlarning samarasi sifatida bunyod etildi. Xalqaro andozalardagi loyiha asosida 5 qavatli bino qurilishi o'ta sifatli amalga oshirildi. Unda maslahat poliklinikasi, reabilitatsiya, oftalmologiya, angoxirurgiya va rentgenodovaskulyar xirurgiya, xirurgiya, jigar va buyrak transplantatsiyasi, urogeologiya, anesteziologiya va reanimatsiya bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Inson omili uchun xizmat qiladigan zamonaviy binoning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar yangi markaz aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirishini ta'kidladi.

Yangi O'zbekistonda islohotlar jarayoni tobora chuqurlashmoqda. Hayotimiz mazmuni kengayib, uning saodatli istiqbol tobora yorqinlashmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini xalqimiz ham ko'rib-bilib turibdi, — dedi Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov. — Bugun respublika darajasidagi 261 turdagi jarrohlik amaliyotlarining 243 tasi Samarqandda ham amalga oshirilayotgani hududda sohaning qanchalik jadal rivojlanayotgani, tibbiy muassasalar moddiy-texnika bazasi muhtakamlanayotganidan dalolat.

Birgina 2023-yilda viloyatimizdagi tibbiyot muassasalarida sarmoya va mahalliy budget mablag'lari asosida 133 milliard so'mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga

oshirildi. Jumladan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali yangi bino qo'chirildi, teri-tanosil kasalliklari shifoxonasining yangi binosi qurib bitkazildi, shahar 1-tug'uruj majmuasi uchun Qorasuv dahasida yangi, zamonaviy bino qad rostladi.

Sankt-Peterburg vitse-gubernatori Oleg Ergashev bunyodkorlikka, yaratishga intilish hissi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi.

Samarqand — dunyoning eng go'zal va mashhur shaharlaridan biri. Hech mubolag'asiz, unga ozudagi shahar, degan ta'rif juda yarashadi, — dedi u. — Uning jahon tamaddunidagi o'rini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Men bu azim shaharning tarixi haqida juda ko'p kitoblar o'qiganman. Bugun uchin chirovga yanada chiroq o'shigani, qadimiy shaharda ilm-fan ham nihoyatda yuksak ekanini ko'rib, juda xursand bo'ldim. Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari, talabalari, yosh tadqiqotchilari bilan shubhatlashib, ularga havasim keldi. Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishdiki. Mamlakatimizdagi yoshlar siyosati ustuvor ahamiyat qaratilayotgani quvonarli hol. Aslida Samarqanddek tabarruk makonda tug'ilishning o'zi baxt. Universitet talabalarining Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' allomalarga munosib voris, yangi O'zbekiston uchun yetuk, barkamol mutaxassis bo'lishga iltiyotgani esa oliy saodat. Yaqin kelajakda ilmiy hamkorligimiz ko'lami yanada kengayadi, do'stligimiz, birodarligimiz yanada mustahkamlanadi, degan umiddaman.

Prezidentimizning 2022-yil 1-apreldagi qaroriga asosan Samarqand davlat tibbiyot instituti Samarqand davlat tibbiyot universiteti sifatida qayta tashkil etildi. Bu yuksak ishonch qariyb yuz yillik tarix va boy

"Xalq so'zi".

Namanganda Vazirlar Mahkamasi Ishchi guruhi hamda viloyat hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Ayollar biznesi uchun birinchi qadam" mavzuida forum bo'lib o'tdi.

Hamza HAMROYEV, Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi.

## UMRIMIZNING BEG'UBOR FASLI

Darhaqiqat, bayram kuni ko'chalarimiz va ko'ngillarimiz shirintoy farzandlarimizning jarangdor kulgisi bilan to'ladi. Aslida dunyoda bola kulgisini sho'xshodon qiyiqirig'idan beg'ubor narsa yo'q. Tiniq nigohini ko'zlarimizga qadab, biyron tilida tinmay savol berayotgan murg'ak qalb egalari odamni boshqa olamlar sari yetaklaydi. Olamdagi jamiki ajoyibolarni o'rganishga, mushohada qilishga urinayotgan bolakayning nurl chehrasiga qaragan odam tashvishlarini bir zumda unutadi. Zotan, farzandining saodatli va

baxtiyor damlarini mudom ko'rib yashash har bir inson umrining asosiy mazmunidir. Bugun mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, moddiy va ma'naviy ko'maklar ham ko'zni quvontiradi. Natijada nogironligi bo'lgan farzandlarimiz o'zining boshqalardan kam emasligini his qilayotir, yaxshi va ko'zga ko'ringan yutuqlarga erishmoqda. — Yaqinda bayram munosabati bilan qator vazirlik va tashkilotlar hamkorligida imkoniyati cheklangan bolalar uchun marafon tashkil etdik, — deydi YUNISEFning

O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi Joffri Ijumba. — Toshkent shahridagi Ekoparkda bo'lib o'tgan musobaqada nogironligi bo'lgan 110 nafar bola qatnashdi. Ularning ishtiyiqi, intilishini ko'rib, odamning bahridili ochiladi, hammasi bir-biridan iste'dodli, bir-biridan harakatchan. Imkoniyati cheklanganiga qaramay olg'a yurishdan, yashashdan, o'z maqsadlari sari odimlashdan to'xtashgani yo'q. Bu ularning eng katta yutuqi. Istandikki, shunday shijoat ularni hech qachon tark etmasin. Mana shunday tadbir va dasturlar vositasida bolalarimizning o'ziga ishonchi,



Vatan ravnaqiga daxldorlik hissi ortib boradi. Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o'qishi uchun munosib shart-sharoitlar hozirlash orqali kelajakda yoshlarning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratapmiz. Zero, bu kabi ezgu maqsad yo'lida sarflangan sarmoyalari ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q. **Samandar PARDABOYEV** ("Xalq so'zi").

MINTAQAMIZDA  
YAGONA SANALGAN  
MUZEY OCHILADI

XIX asr oxiri — XX asr dastlabki o'n yilliklari xalqimiz tarixiga juda muhim davr sifatida kirgan. Bu bevosita jadicchilik harakati bilan bog'liq. Zero, jadiclar ilm-fan, maorif ravnaqi va istiqloq uchun jonlarini ham ayamagan.

## Munosabat

— Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan jadicchilik tarixiga oid muzey faoliyatini yo'lga qo'yish sa'y-harakatlari boshlangani ayni muddao bo'ldi, — deydi Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, tarix fanlari doktori, professor Shodmon Hayitov. — Shu yilning 30-mayida esa Prezidentimizning "Jadiclar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi tarixiy adolatning tiklanishi sari qo'yilgan yana bir salmoqli qadam deyish mumkin. Bu dargohning yosh avlodni istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashda alohida o'rin tutadigan maskan bo'lishiga shak-shubha yo'q. Zero, shu paytga qadar Markaziy Osiyoda bevosita jadiclar hayoti, ular qoldirgan boy meros tarixiga oid muzey yo'q edi.

amirligi fuqarosi bo'lgani uchun Rossiya imperiyasi ma'murlari qutqusidan qutulib qolgan. Turkiyada tahsil olgan, ona yurtga qaytib bir qator mas'uliyatli vazifalarda ishlagan Usmon Xo'ja 1922-yilda Afg'onistonga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. Va 46 yil

bu insonning so'zlarini tinglab, istiqloq, hurriyat qadri qimmatini yanada chuqurroq anglab yetasan, kishi.

Darvoqe, Xo'ja Gulrez ko'chasidagi 13-uyning Temurxo'janing bobosi, yirik savdogar Po'latxo'ja Karamatulloxo'ja 1860 — 1870-yillarda barpo etgan. Tashqi va ichki hovlidan iborat bo'lgan uy turli tashkilotlarga boshpana vazifasini o'tagan. Keyingi paytda undan xususiy mehmonxonaga sifatida foydalanib kelinayotgandi.

Davlatimiz tomonidan bu qadimiy yuning ta'mirlanib,



vatangadolikda yashaydi, 1968-yilda Turkiyada vafot etadi.

— Otam O'zbekistonda, Buxoroni yurak-yurakdan yaxshi ko'radi, — degandi Buxoroda o'tgan tadbirlardan birida uning Turkiyada tug'ilgan farzandi Temurxo'ja Usmonxo'ja o'g'li. — Esmida, u kishi hayot bilan vidolashar chog'ida menga "O'g'lim, O'zbekiston, albatta, istiqloqga erishajak. Sen borib uning tuprog'ini tavof etasan. O'shanda ona yurtimga sen mening ko'zlarim bilan boq", deya vasiyat qilgandi. Allohga shukrki, shu kunlarni ko'rmoq nasib etdi.

Filologiya fanlari doktori, professor sifatida AQSHning Michigan universitetida uzoq yillar talabalariga ta'lim bergan

Jadiclar merosi davlat muzeyiga aylantirilishi ma'rufatparvar insonlarni befarq qoldirmaydi, albatta. Negaki, ayrim yurtdoshlarimizda jadicchilik harakatiga oid manbalar, ashvoviy dalillar, qadimiy kitoblari bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ular taqdim etilsa, muzey mazmunan yanada boyiydi.

Aytmoqchi, bizdagi ma'lumotlarga qaraganda, Temurxo'ja ham Istanbuldagi boy kutubxonasidagi kitoblarni shu muzeyga taqdim etish niyatini bildirgan.

Ma'lumot o'rnida aytish joziki, Buxoro viloyatida ayni paytda 18 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

Istam IBROHIMOV  
("Xalq so'zi").

## HAYRATLAR DUNYOSIGA YO'L

Yoshlar — xalqimiz boyligi, mamlakat ertasining hal qiluvchi kuchi. Ularni har tomonlama barkamol va sog'lom, yuksak ma'naviyatli avlod etib tarbiyalash oliy burchimizdir. Zero, ma'naviyatli yuksak inson, avvalo, o'ziga ishonadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qiladi, xalqimizning tarixini jon qadar e'zozlaydi, shu muqaddas Vatanga munosib farzand bo'lish, uning taraqqiyotiga hissa qo'shishga intiladi.

Globallashgan bugungi zamonda jondan aziz farzandlarimizni o'zligini anglagan, dunyoga teran nazar tashlay oladigan, milliy g'ururi bilan insonlar qilib tarbiyalash g'oyat dolzarb. Bu yo'lida adabiyotning, ayniqsa, bolalar adabiyotining ahamiyati beqiyos.



## Yosh tasavvurlarni taroshlagan satrlar

Har bir yosh avlodning katta adabiyotga, hayotga, so'zga va shular orqali butun millat hamda mamlakatga bo'lgan ilk mehriini aynan bolalar adabiyoti uyg'otadi. Zero, har birimiz bolaligimizda eshigan ertaklarimiz va yod olgan she'rlarni hali-homim dilda saqlaymiz. Ularning har biri xotiramizga mahkam o'mashgan. Nima uchun? Chunki ular musaffo osmon singari tip-tinik bolalik tasavvurlarimizni taroshlagan, hayot bilan yaqindan tanishtirgan.

E'tibor bering-a, osmondan o'z ovozi ortda qoldirib, uzun iz tashlab uchib o'tayotgan samolyot bilan go'yoki bellashgan holda yugurilgan bolakayning og'zidan beixtiyor "Samolyot, samolyot, qanotingni pastlab o't..." degan she'ri misralar eshitiladi. Va ular bilan shubhatlashish asnosida "Kelajakda kim bo'lmoqchisan?" deb so'rasangiz, hech ikkilanmay "Uchuvchi bo'laman", deydi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, o'sha bolakayning poyonsiz orzularga to'la yuragiga kuch bag'ishlagan, o'ziga ishonchni o'stirgan omil — bu uning tiliga begona bo'lmagan, yoshiga mos o'ta sodda, samimiy misralardir.

Bolalik davrlarimni eslasam, avvalo, Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Shukur Sa'dulla, Adham Rahmat, Sulton Jo'ra, Qudrat Hikmat, Qudus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev singari o'zbek bolalar ijodkorlarining bir-biridan quvnoq asarlari, qadrdonimga aylanib ketgan kitoblari ko'z oldimga keladi. "Baxt va shodlik kuychisi" deya e'tirof etilguchiyi hassos shoir Hamid Olimjonning quyma misralari bilan bitgan ertaklari xayolimdanda o'ta boshlaydi.

Bolalik kunlarimda, Uyuqsiz tunlarimda, Ko'p ertak eshitgandim, So'yab berardi buvim...

Yoki bo'lmasa, bolajonlarning eng sevimli shoiri Zafar Diyorning ushbu misralarida Vatanga muhabbat tuyg'usi

yuksak pardalarda sodda va ravon kuylanadi:

Vatan agar bo'lsa bir chaman,  
Siz qo'nyida xandon g'unchalar.  
Ey, siz, mening kichik do'stlarim,  
Vataningiz sevar shunchalar!  
Zafar Diyorning kichikintoylar uchun yozgan shu qadar samimiy she'rlari borki, ularni bir o'qishdayoq yod olish mumkin. Ma'lum va mashhur "Kitob, mening do'stimsan" she'riga e'tibor bering:

Varaqasam bir boshdan,  
Qumab bahrim ochilur.  
Oltin harf, so'zlaridan  
Totli ma'no sochilur.  
Shuning uchun deymanki:  
Kitob, mening do'stimsan!  
His qilib turganingiz singari, bu kabi sodda so'zlar bilan bolajonlar qalbinu bemalol zabt etish mumkin. Ya'ni har qanday bolaning qo'lga tushgan ushbu she'r unda kitobga mehri bir zumda paydo qiladi.

Yo bo'lmasa, Shukur Sa'dullaning ko'pchiligimizga yod bo'lib ketgan "Yomg'ir yog'aloq" she'riga ahamiyat bering. Mana, ona tabiatga so'z bolalar nigohi bilan qarash va uni she'rdan aks ettirish mahorati:

Yomg'ir yog'aloq,  
Yam-yashil o'tloq,  
Endi ekinlar  
Chiqarar quloq...  
Ushbu keltirilgan she'riy asarlarning aksariyati biz tahsil olgan davrdagi maktab darsliklariga kiritilgandi.

Shu o'rinda yana bir mulohaza: bugungi kunda maktablarda o'qitilayotgan ona tili va adabiyot darsliklariga kiritilgan baxt she'riy bitiklarga ko'zingiz tushib, yoqa ushlaysiz. Ularni kitob tuzuvchilar tegishli mavzuga mos asarlarni axtarib yurgandian ko'ra o'zlari "jod" qilib qo'ya qolishgan, shekilli, degan xayolga borasiz. Ushbu og'rinishlarni birgina mening shaxsiy fikrim emas, balki bevosita bugungi kunda yosh avlodga saboq berib kelayotgan murabbiylardan kelib tushgan haqli e'tirozlar hosilasi, deb hisoblashingizni so'rdardim. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishni

bugungi kunning eng muhim vazifalaridan deb bilar ekanmiz, demak, darsliklar va ularda foydalanilayotgan asarlar sifat darajasini ham munosib tarzda mutaxassislar ko'rigidan o'tkazib, tegishli hay'at a'zolarining xulosalariga tayyangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

## E'tibor va g'amxo'rlik — ilhom manbai

Xayriyatki, bugun bolalar ijodkorlari soni ham, yozilayotgan asarlar sifati ham ancha jonlandi. Eng muhimi, an'anaviy yo'lida ijod qilib kelayotgan bir qancha zabardast ijodkorlarning bolalar adabiyoti yo'nalishida o'zlarini sinab ko'rayotgani juda quvonarli. Sababi esa oddiy — adabiyotga e'tiborning kuchaygani. Qolaversa, bolajonlarga atab yozilgan asarlar o'rtaasidagi tanlovlarning tashkil etilishi va albatta, munosib rag'batlantirilishi bu yo'lidagi urinishlarni sezilarli tarzda o'stirmoqda. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashiga kelib tushayotgan ijod mahsullari — qo'lyozmalar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Yana bir masala borki, bugungi bolalar adabiyoti o'zini keng qamrova tahlil eta oladigan, yaratilayotgan asarlarning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratib berish vazifasini sidqidildan o'z gardaniga ola biluvchi tadqiqotchi mutaxassislariga ehtiyoj sezmoqda. Haqiqiy ijodning tub mohiyatidan so'z ochib, arzirli bitiklarni namuna tarzida ko'rsatish, quruq so'zlarni tizimli joylashtirish bilan biror natijaga erishib bo'lmasligi haqida o'tkir so'zlar aytiladigan fursat yetib kelgan. Shundaygina asl adabiyotga daxldor asarlar "suv yuzasiga qalqib chiqadi" va o'z muxlislarini ham osonlik bilan topadi.

1995-yilda chop qilingan "Bolalar adabiyoti" ilmiy risolasidagi mazkur so'zlar

Qisqacha aytganda, bu kabi haroratli jarayonlar barcha qalam ahlining boshini osmon qilgani tayin. Ijodkor-ziyolisining qadri baland va boshi osmon bo'lgan bu zaminda esa, albatta, uchinchi Renessans bo'y ko'rsatajak.

## Orif TO'XTASH,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashi raisi.

## REKLAMA

## "O'zbekiston pochta" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida

## HURMATLI AKSIYADOR!

"O'zbekiston pochta" AJ aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2024-yil 27-iyun kuni soat 12:00 da masofadan turib elektron ovoz berish tizimi — "www.evote.uz" orqali o'tkaziladi.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish soat 11:00 dan 11:55 gacha amalga oshiriladi. Umumiy yig'ilish o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlari reestri 2024-yil 21-iyun holatiga tuziladi.

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@poshta.uz

## Yig'ilish kun tartibi:

- "O'zbekiston pochta" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reqlamentini tasdiqlash;
- Sanoq komissiyasi a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida;
- AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisoboti to'g'risida;
- "O'zbekiston pochta" AJ faoliyatining 2023-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash to'g'risida;

5. Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari hamda jamiyat tomonidan korporativ boshqaruv qoidalarga rioya qilinishi monitoring natijalarini ko'rib chiqish;

6. AJ tomonidan 2023-yil yakunlari bo'yicha ko'rilgan sof foydani taqsimlash va dividend to'lash to'g'risida;

7. "O'zbekiston pochta" AJ bosh direktori vakolatini uzaytirish to'g'risida;

8. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq majburiy tashqi auditni o'tkazish maqsadida 2024-yil uchun auditorlik kompaniyasini tanlash va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilash to'g'risida;

Umumiy yig'ilish bo'yicha ma'lumot va hujjatlar bilan "O'zbekiston pochta" AJ bosh ofisida ushbu e'lon berilgan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha yoki "www.evote.uz" veb-sayti orqali tanishish mumkin.

Ma'lumot uchun telefon: 71-232-00-33.

Jamiyat Kuzatuv kengashi.

## Tender takliflariga so'rov

## O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MCHJ (IT-Park) xalqaro forumlarda ishtirok etish hamda O'zbekistonda forum va anjumanlarni tashkil qilish xizmatlarini ko'rsatish uchun korxonaga va tashkilotlarga tomonidan tender takliflarini taqdim qilishga taklif etadi.

Tender takliflarini taqdim qilishning oxirgi muddati: 2024-yil 17-iyul, soat 15:00.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, 71-209-11-99 (1037).

## Mamlakatimizda 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan "Beg'ubor bolalik" shiori ostida "Bolalar kitob festivali" o'tkazilmoqda.

Xalq so'zi  
Nardnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542, 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxonaa 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obsumni rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi haunda operator M. Begumuratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxonaa telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.  
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaa manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.12 Topshirildi — 23.50 1 2 3 4 5 6